O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Modernizatsiya davrida boshlang'ich ta'limning rivojlantirish strategiyalari

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

MATERIALLARI

2025 yil 18-sentyabr

DAVLATIMIZ TARAQQIYOTIDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI: ILMIY TAHLIL

Usmonova Ruzixon Bozorovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada davlat taraqqiyotida umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni, ahamiyati va ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy jarayonlarga ko‘rsatadigan chuqur ta’siri yoritiladi. Maqolada umuminsoniy qadriyatlar tizimining shakllanish tarixi, ularning davlat boshqaruvi, ta’lim-tarbiya, milliy o‘zlikni anglash jarayonlaridagi tutgan roli ilmiy asoslarda keng tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: umuminsoniy qadriyatlar, ma’naviyat, taraqqiyot, barqarorlik, strategik rivojlanish, huquqiy madaniyat, demokratiya, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, taraqqiyot modeli.

Globallashuv chuqurlashib borayotgan bir davrda har bir davlatning iqtisodiy salohiyati, siyosiy barqarorligi va ma’naviy taraqqiyoti faqat moddiy boyliklar bilan emas, balki umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy-madaniy tuzilma bilan belgilanadi. Umuminsoniy qadriyatlar – bu insoniyat tomonidan asrlar davomida yaratilgan va bugungi kunda ham universal ahamiyatga ega bo‘lgan axloqiy, ma’naviy, ijtimoiy tamoyillardir. Ularga inson huquqlari, adolat, halollik, tenglik, erkinlik, bag‘rikenglik, tinchlik, hamkorlik kabi qadriyatlar kiradi.

Bugungi taraqqiyot jarayonlarida ushbu qadriyatlar nafaqat siyosiy tizimning asosiy tayanchi, balki jamiyatning barcha jabhalarida yangilanishlar uchun tamal toshi vazifasini bajaradi. Ayniqsa, O‘zbekistonning so‘nggi yillarda amalga oshirayotgan islohotlari umuminsoniy qadriyatlarga tayanib, inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish tamoyiliga asoslanmoqda.

Umuminsoniy qadriyatlar jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini uyg‘unlashtiruvchi bosh mezonlardan biridir. Ular insonning shaxs sifatida shakllanishiga, jamiyatning barqaror rivojlanishiga, davlatning demokratik taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ushbu qadriyatlarning shakllanishi ming yillik tarixga ega bo‘lib, ular turli madaniyatlar, turli dinlar va turli ijtimoiy tizimlar tajribasi bilan boyigan. Bugungi kunda ular global miqyosda insoniyat taraqqiyotining bosh omili sifatida e’tirof etilmoqda.

Umuminsoniy qadriyatlarning davlat boshqaruvidagi ahamiyati ayniqsa huquqiy demokratik davlatlar modelida yaqqol namoyon bo‘ladi. Qonun ustuvorligi, erkinlik, adolat, inson huquqlarining kafolatlanishi kabi tamoyillar davlatning barqaror ishlashini ta’minlaydi. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanishda ham mazkur

qadriyatlarning ahamiyati katta bo‘lib, ular halol mehnat, adolatli taqsimot, teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ta’lim tizimi umuminsoniy qadriyatlarning asosiy targ‘ibotchisi sifatida jamiyatning kelajagini belgilaydi. Yosh avlod ongiga halollik, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, insonparvarlik, mas’uliyat kabi sifatlarning singdirilishi kelajakning ma’naviy yetuk jamiyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorlik kasb etayotgani alohida e’tiborga loyiq. “Inson qadri uchun” tamoyili, sud-huquq tizimidagi islohotlar, ta’lim sohasidagi yangiliklar, ijtimoiy himoya tizimining kuchaytirilishi – bularning barchasi mazkur qadriyatlar amaliyotga faol tatbiq etilayotganidan dalolatdir.

Madaniyatlar o'rtasidagi integratsiya zamonaviy jamiyatning muhim jihatlaridan biridir. Turli madaniyatlar o'rtasida o'zaro tushunish, hurmat va hamkorlikni rivojlantirish uchun bir qator umuminsoniy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega. Hurmat – bu har bir madaniyat va uning an'analariga nisbatan e'tibor va qadrlashni anglatadi. Turli madaniyatlar o'rtasida hurmat ko'rsatish, o'zaro muloqotni osonlashtiradi va insonlarning o'zaro tushunishlariga yordam beradi.

Tenglik qadriyati barcha insonlarning tengligi va huquqlarini tan olishni anglatadi. Bu qadriyat, madaniy farqlarga qaramay, barcha insonlarning bir-birini tushunishiga yordam beradi va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi. Ochiqlik – bu yangi g'oyalar va madaniyatlarni qabul qilishga tayyor bo'lishdir. Ochiq fikrli bo'lish, turli madaniyatlar o'rtasida integratsiyani kuchaytiradi va o'zaro muloqotni rivojlantiradi. Muloqot va fikr almashish imkoniyatlarini yaratish, madaniyatlar o'rtasida yaxshiroq tushunish va munosabatlarni o'rnatish imkonini beradi. Samarali muloqot, turli madaniyatlar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Turli madaniyatlar o'rtasida hamkorlik va xamjihatlikni rivojlantirish, jamiyatda birlashishni mustahkamlashga yordam beradi. Xamjihatlik, madaniyatlar o'rtasida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Boshqa madaniyatlarni o'rganish va ularni o'zlashtirish, integratsiyani kuchaytiradi. Bu jarayon, madaniyatlar o'rtasidagi umumiy qadriyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Inson huquqlarini himoya qilish va ularga rioya qilish, har bir madaniyatning qadriyatlarini tan olishga yordam beradi. Bu qadriyat, madaniyatlar o'rtasida tinchlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, umuminsoniy qadriyatlar davlat taraqqiyotining strategik poydevori bo‘lib, ular siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy jarayonlarning bosh yo‘nalishini belgilaydi. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ushbu qadriyatlarning davlat siyosatidagi tutgan o‘rni yanada mustahkamlanib, “inson qadri” konsepsiyasi asosiy mafkuraviy tamoyilga aylandi. Kelajakda ham jamiyatning barcha jabhalarida umuminsoniy qadriyatlarning keng tatbiqi barqaror va rivojlangan jamiyat qurishning kafolati bo‘lib qoladi. Madaniyatlar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish

uchun qadriyatlar muhim ahamiyatga ega. Ular turli madaniyatlar o'rtasida tinchlik, hamkorlik va o'zaro tushunishni ta'minlaydi. Jamiyatda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish, madaniyatlar o'rtasidagi integratsiyani yanada kuchaytiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–2909-son hamda 2019 yil 16 yanvardagi PQ-4119-son “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlar
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 19 iyuldagi 390-son “Xalq ta’limi vazirligi tizimida o‘quvchi-yoshlarni kelajak kasblariga tayyorlash markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” 2020-yil 23-sentabrdagi 637–son Qonuni

G‘O‘ZANING JUFT VA KOMPOZIT DURAGAYLASH ASOSIDA OLINGAN OILA VA TIZMALARIDA TEZPISHARLIKNING SHAKLLANISHI

Barotova Anisa Razzokovna

Toshkent davlat agrar universiteti Ipakchilik va tutchilik kafedrasi o‘qituvchisi Q.x.f.f.d

Annotatsiya: Maqolada g’o’zaning juft va kompozit duragaylash asosida olingan oila va yaratilagan tizmalarning tezpisharlik bo’yicha ko’rsatkichlari keltirilgan. Tezpisharlikda g’o’zaning juft duragaylash asosida ajratib olingan O-27 oilasidan, kompozit duragaylash asosida ajratib olingan O-3398, O-3407 va O-3406 oilalari hamda yaratilgan T-3377, T-3379 va T-3378 tizmalaridan foydalanish samarador ekanligi qayd etilgan. Ulardan kelajakda genetik-selektsion tadqiqotlarda boshlang’ich ashyo sifatida foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi yoritilgan.

Kalit so’zlar: g’o’za, juft duragay, kompozit duragay, oila, tizma, tezpisharlik, genetik-selektsion tadqiqotlar, samaradorlik.

Аннотация: В статье представлены показатели скороспелости семьей и созданных линий на основе парной и композиционной гибридизации хлопчатника. Отмечено, что использование семьей О-27, выделенного на основе парной гибридизации, семьей О-3398, О-3407 и О-3406, выделенных на основе

INTEGRATSIYALASHUVI: PEDAGOGIK IMKONIYATLAR VA METODIK YONDASHUVLAR	
Imomnazarova Maysaraxon BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK OMILLARI	656
Qodirova Kumush MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA VATANPARVARLIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI	659
Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna. Abdukaxxarova Zuxra. O‘QUV MUHITIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI TINCHLANTIRIVCHI VA FAOLLASHTIRUVCHI YONDASHUVLAR.	662
Rashidova Gulnoza G`ulomovna TARBIYA DARSLARINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING FUNKSIONAL MODELI	665
Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna KORXONALARDA RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA’SIRI	668
Usmonova Ruzixon Bozorovna DAVLATIMIZ TARAQQIYOTIDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI: ILMIY TAHLIL	671
Barotova Anisa Razzokovna G‘O‘ZANING JUFT VA KOMPOZIT DURAGAYLASH ASOSIDA OLINGAN OILA VA TIZMALARIDA TEZPISHARLIKNING SHAKLLANISHI	673